

YO‘L HARAKATINI TASHKIL ETISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH SOHASIDAGI MUAMMOLAR HAMDA ULARNING YECHIMLARI

Kutlimuratova Dilfuza Sharjau qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yo‘l harakti xavfsizligi va u bo‘yicha chora-tadbirlar o‘tkazish hamda baxtsiz hodisalarni oldini olish kabi harakatlar, bundan tashqari yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi muammolar va ularga yechim topish kabi masalalar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek respublikamizda yo‘l harakatini tashkil etishda asosan transport vositalari harakatlarini rivojlantirish va yo‘lga qo‘yish hamda yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining asosiy vazifalari va ularning qonun hujjatlarida mustahkamlanishi kabi masalalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Yo‘l infratuzilmasi, transport oqimi, zamonaviy chorrahalar, . jamoat transporti.

“Yo‘l qoidasi – umr foydasi”

Yo‘l harakati xavfsizligi – bu nafaqat haydovchilar, balki piyodalar uchun ham eng dolzarb masalalardan biridir. Har yili dunyo bo‘yicha yo‘l-transport hodisalari oqibatida millionlab insonlar jarohatlanadi yoki hayotdan ko‘z yumadi. Bu muammo har bir davlat uchun muhim bo‘lib, jamiyatning har bir a‘zosidan ehtiyotkorlik va mas‘uliyat talab qiladi. Shu jumladan, Yo‘l harakati xavfsizligi – bu jamiyatning muhim masalalaridan biri bo‘lib, inson hayoti va salomatligini himoya qilish, transport vositalari harakatini tartibga solish va yo‘l infratuzilmasini takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda yirik shaharlar va avtomobil yo‘llarida transport oqimining keskin oshishi yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Yo‘l harakatini tashkil etish va harakat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi muammolar hamda ularning yechimlari: Yo‘l harakati xavfsizligi – bu jamiyatning muhim masalalaridan biri bo‘lib, inson hayoti va salomatligini himoya qilish, transport vositalari harakatini tartibga solish va yo‘l infratuzilmasini takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda yirik shaharlar va avtomobil yo‘llarida transport oqimining keskin oshishi yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Asosiy muammolar shundan iboratki transport vositalari sonining ortishi, so‘nggi yillarda shaxsiy va jamoat transporti soni keskin ko‘paydi, bu esa tirbandliklar, avtohalokatlar va ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bundan tashqari yo‘l infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmagani ko‘plab yo‘llarning sifati past, transport oqimiga mos kelmaydi yoki zamonaviy yo‘l harakati talablariga javob bermaydi. Bu esa avariya sonining ortishiga sabab bo‘ladi. Yo‘l harakati qoidalariga rioya qilmaslik. Ayrim haydovchilar qoidalarga amal qilmaydi, tezlikni oshirish, svetofor signallarini mensimaslik, belgilangan yo‘laklardan noto‘g‘ri foydalanish kabi qoidabuzarliklarga yo‘l qo‘yadi. Piyodalar va velosipedchilar xavfsizligi ayrim hududlarda

piyodalar uchun ajratilgan yo‘laklar va velosiped yo‘llari yetarli emas. Bu esa ularning yo‘l harakati ishtirokchilariga qo‘shilishiga va xavf darajasining oshishiga olib keladi. Yo‘l harakati madaniyatining pastligi haydovchilar va piyodalarning yo‘l harakati madaniyati yetarli darajada shakllanmagani sababli baxtsiz hodisalar ko‘p uchraydi.

Muammolarga yechim sifatida quyidagilarni kiritsak bo‘ladi ya’ni, yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish zamonaviy chorahalar, transport halqasi tizimlari, estakada va yer osti o‘tish yo‘laklari qurish yo‘l harakati xavfsizligini yaxshilashga yordam beradi. Intellektual transport tizimlarini joriy etish, yirik shaharlar uchun aqlli svetofor tizimlari, transport oqimini kuzatuvchi sun’iy intellekt texnologiyalari joriy etilishi tirbandliklarni kamaytiradi. Qoidabuzarliklarni nazorat qilishni kuchaytirish foto va video kuzatuv kameralarining sonini oshirish, avtomatik jarima tizimlarini joriy qilish qoidabuzarliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Yo‘l harakati madaniyatini oshirish bunda aholi o‘rtasida muntazam tushuntirish ishlari olib borish, ta’lim muassasalarida yo‘l harakati qoidalariga oid darslarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoat transportidan foydalanishni rag‘batlantirish bunda asosan sifatli va arzon jamoat transporti tizimini yaratish orqali shaxsiy avtomobillarga bo‘lgan ehtiyoj kamaytirilib, tirbandlik muammosi hal etilishi mumkin. Yo‘l qoidasi – umr foydasi deganidek har bir haydovchi yo‘lda ehtiyot choralarini ko‘rishi va atrofga e’tiborli bo‘lishi shart. Yo‘l harakati qoidalari qonunchiligimizda ham belgilab o‘tilgan ya’ni, O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati to‘g‘risidagi “ qonunida yo‘l harakati xavfsizligi va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha majburiyatlar belgilangan, jumladan mazkur qonunning 34-modda Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash. Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash yo‘l-transport hodisalari ro‘y berishi sabablarining oldini olishga va ularning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan faoliyatdir. 35-modda Transport vositalari egalarining yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga doir majburiyatlari. Transport vositasiga mulk huquqi, xo‘jalik yuritish huquqi yoki operativ boshqarish huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asosda egalik qiluvchi shaxs transport vositasining egasidir. Transport vositasini o‘z xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarish uchun, shu jumladan transport vositasining mulkdori yoxud boshqa egasi bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga yoki fuqarolik-huquqiy xususiyatga ega shartnomaga asosan boshqaruvchi shaxs transport vositasining egasi bo‘lmaydi. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrdagi 806-qaroriga ilova 3-bandida “Yo‘l harakati ishtirokchilari O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonunini, ushbu Qoidalarni va ularda keltirilgan svetofor ishoralari, yo‘l belgilari (ushbu Qoidalarga 1-ilova), yo‘l chiziqlarining (ushbu Qoidalarga 2-ilova) talablarini bilishlari, ularga amal qilishlari, shuningdek, ularga berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart”. deb ko‘rsatib o‘tilgan.



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorida yo‘l harakati paytida amal qilish shart bo‘lgan belgilar ta’kidlab o‘tilgan. Hozirda qonunchiligimizda yo‘l harakati qoidalarini va transport boshqaruvchilariga nisbatan qo‘yiladigan talab hamda ushbu qonun va qoidalarni buzgan tag‘dirda ularga qo‘llanadigan jazo choralari belgilab o‘tilgan.

Jumladan O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzganda ya‘ni, haydovchilarning transport vositalarini boshqarish va yo‘lovchilar tashishda xavfsizlik kamaridan foydalanish qoidalariga, xuddi shuningdek mototsikl va mopedlar haydovchilarining motoshlemlardan foydalanish qoidalariga rioya etmasligi — bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida yo‘l harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzgan shaxslarga nisbatan jazo-choralari belgilangan. Ushbu kodeksning 261-moddasi Mast holdagi shaxsning transport vositasini boshqarishiga yo‘l qo‘yish. Transport vositasidan foydalanish uchun mas‘ul shaxsning mast holatdagi yoki giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aql-idrokiga ta‘sir ko‘rsatuvchi boshqa moddalar ta‘siri ostida bo‘lgan shaxsni temir yo‘l, dengiz, daryo, havo, avtomobil transporti yoki boshqa transport vositasini boshqarishiga yo‘l qo‘yishi

badanga og‘ir shikast yetkazilishiga yoxud odam o‘lishiga sabab bo‘lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum qilib, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. 266-moddasi Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish. Transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Har bir shaxs yo‘l harakati qoidalariga shu jumladan qonunga bo‘ysinib amal qilsa balkim yo‘l harakati bilan bog‘liq muammolar kamayar edi. Hozirda yo‘l harakati bo‘yicha mas‘ul organlar birqancha chora- tadbirlarni amalga oshiryabdi, bu harakatlar faqat gina bir shaxs manfaati uchun emas balki butun respublika aholisi havsizligi uchundir.

Xulasa qilib aytganda, yo‘l harakatini tashkil etish va xavfsizligini ta‘minlash zamonaviy jamiyatning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Transport vositalari sonining oshishi, yo‘l infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmagani, qoidabuzarliklar va yo‘l harakati madaniyatining pastligi avariylar sonining ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun zamonaviy transport texnologiyalarini joriy etish, yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish, qat‘iy nazorat choralari ko‘rish hamda yo‘l harakati madaniyatini oshirish zarur. Shu bilan birga, jamoat transportidan foydalanishni rag‘batlantirish ham tirbandlikni kamaytirishga yordam beradi. Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash har bir fuqaroning mas‘uliyati bo‘lib, barchaning qoidalarga rioya qilishi ushbu muammolarni bartaraf etishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati to‘g‘risida” qonuni 19.01.2024-yil 900-son
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 22.09.1994-yil
3. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 01.04.1995-yil <http://lex.uz/docs/-97664>
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati sohasidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan Yo‘l harakati qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” qarori. 30.11.2024-yil 806-son <https://lex.uz/ru/docs/-7247939>
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori.12.04.2022-yildagi 172-son
<https://lex.uz/uz/docs/-5953883>